

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muloqotning psixologik tamoyillari xususida	90
M.M.Kaxarova	
Til va nutq tushunchasi	97
M.M.Kaxarova	
Konsept va u bilan bog'liq terminlar xususida.....	103
E.V.Yugay	
Clarity and accessibility as drivers of scientific impact in academic writing.....	107
D.I.Sattarova	
Siyosiy matnlarda intertekstual unsurlar va ularning kommunikativ ahamiyati	112
G.U.Yuldasheva	
Ingliz va o'zbek tilshunosligida "Baxt" va "Baxtsizlik" konseptlarining o'rganilishi.....	117
G.U.Maxmudjonova	
O'zbek tilida orfoepik me'yorlarni avtomatlashtirishning muammolari va yechimlari	123
Sh.R.Askerova	
Metaphor and its types in modern french.....	127
H.U.Davlatova	
Tilshunoslikda nutq ontogenezining psixolingvistik tadqiqi va uning ilmiy-nazariy asoslari	131
Z.S.Kenjaye	
Boysun tumani oronimik tizimida zoonim komponentli oronimlar	138
A.R.Kosimov	
Критическое отношение к собственной педагогической практике.....	143
M.Ш.Бахриддинова	
Антропоцентрический подход в переводе и влияние когнитивных и культурных факторов на восприятие	146
Ч.Х.Чамолов	
Иртиботи забонҳои тоҷикӣ ва ўзбекӣ	151
X.P.Murtozoev, M.A.Ubaydullozoda	
Ҳодисаи савтии ҷойивазкунии овозҳо дар ашъори намояндагони сабки Хуросонии адабиёти тоҷику форс.....	158
X.J.Sayfullayev, F.M.Ulasheva	
Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari	164
S.A.Toshmatova	
Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanida milliylik ifodasi: realiyalar va ularning inglizcha tarjimadagi talqini	171
S.M.Muminov, Sh.D.Muxtorova	
Data jurnalistikasi va uning ma'lumotlar tahlilida tutgan o'rni (internet nashrlari misolida)	176
U.To'rayeva	
O'zbek tili grammatikasining zamonaviy o'qitilish usullari: muammo va yechimlar.....	182
H.U.Davlatova	
Nutq ontogenezining lingvistik tadqiqi	187
I.V.Xoldarova	
Raqamli texnologiyalar asosida boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodlari	195
N.ShAbdullayeva	
Teaching the use of thesauruses to english as a foreign language learners: pedagogical approaches and lexical development	198
M.O.Obilov	
Kognitiv sxemalar va freymalar: akademik matn yaratishda shaxsiy tajribaning roli	207
N.Sh.Abdullayeva	
Innovative approaches to teaching english as a foreign language: contemporary methodologies and digital integration	212
Z.A.Akbarova	
Inson dunyo qarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	219
I.B.Xabibullayev	
Said Ahmadning "Azroil o'tgan yo'llarda" hikoyasidagi oilaviy munosabatlarda psixofiziologik holat tasviri.....	222
M.X.Hakimov	
Implitsitlik kategoriyasi xususida	227



UO'K: 811.512.133' 23:373.24

NUTQ ONTOGENEZINING LINGVISTIK TADQIQI

ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ОНТОГЕНЕЗА РЕЧИ

LINGUISTIC RESEARCH ON SPEECH ONTOGENESIS

Davlatova Hulkaroy Uktamovna 

Andijon davlat chet tillari instituti, (PhD) dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada nutq ontogenezinining lingvistik jihatlarini o'rganish asosiy maqsad qilib olinadi. Inson nutqining shakllanish jarayoni biologik, psixologik va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liq bo'lib, uni tadqiq etish orqali til va tafakkur o'rtasidagi munosabat, shuningdek, bolalar nutqining rivojlanish qonuniyatlari aniqlanadi. Maqola doirasida tavsifiy-taqqoshlash, lingvokognitiv va psixolingvistik tahlil metodlaridan foydalaniladi. Shuningdek, bolalar nutqidan olingan kuzatish materiallari asosida amaliy tahlil ham amalga oshiriladi. Ushbu metodlar nutqiy faoliyatning shakllanish bosqichlarini tizimli ravishda ochib berishga xizmat qiladi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, bolalar nutqining ontogenezida fonetik, leksik va grammatik darajalarning izchil shakllanishi kuzatiladi. Lingvistik vositalarning asta-sekin murakkablashuvi bolaning muloqot doirasi kengayishi va kognitiv faoliyati rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Nutq ontogenezinining lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish tilshunoslik uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonni tahlil qilish nafaqat til rivojlanish mexanizmlarini ochishga, balki ta'lim jarayonida bolalarning nutqiy malakasini shakllantirish bo'yicha samarali usullarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Аннотация

В данной статье основная цель заключается в изучении лингвистических аспектов онтогенеза речи. Процесс формирования речи человека тесно связан с биологическими, психологическими и социальными факторами. Его исследование позволяет выявить закономерности развития детской речи, а также установить взаимосвязь между языком и мышлением. В работе применяются описательно-сравнительный, лингвокогнитивный и психолингвистический методы анализа. Кроме того, используются материалы наблюдений за детской речью, на основе которых проводится практический анализ. Эти методы позволяют системно раскрыть этапы формирования речевой деятельности. Проведённый анализ показал, что в онтогенезе речи ребёнка последовательно формируются фонетический, лексический и грамматический уровни. Постепенное усложнение языковых средств тесно связано с расширением коммуникативной сферы и развитием когнитивной деятельности ребёнка. Лингвистическое изучение онтогенеза речи имеет важное теоретическое и практическое значение. Анализ данного процесса способствует раскрытию механизмов языкового развития, а также созданию эффективных методов формирования речевых навыков у детей в образовательной практике.

Abstract

The main aim of this article is to investigate the linguistic aspects of speech ontogenesis. The process of speech formation in humans is closely connected with biological, psychological, and social factors. Studying it helps to reveal the regularities of child language development and to define the relationship between language and thinking. The study employs descriptive-comparative, linguo-cognitive, and psycholinguistic methods of analysis. In addition, observation data from children's speech are used for practical analysis. These methods make it possible to systematically identify the stages of speech activity formation. The analysis has shown that during the ontogenesis of speech, children consistently acquire phonetic, lexical, and grammatical levels. The gradual complication of linguistic means is closely related to the expansion of communicative interaction and the development of cognitive activity. A linguistic study of speech ontogenesis has both theoretical and practical significance. Analyzing this process not only clarifies the mechanisms of language development but also provides effective approaches for forming children's speech skills in educational practice.

Kalit so'zlar: til, nutq, tilshunoslik, ontogenez, bolalar nutqi, kishilik jamiyati, fikrlash, muloqot.

Ключевые слова: язык, речь, языкознание, онтогенез, детская речь, человеческое общество, мышление, общение.

Key words: language, speech, linguistics, ontogenesis, child speech, human society, thinking, communication.

KIRISH

Kishilik jamiyatida mehnat faoliyatining izchil takomillashuvi hamda shaxslararo munosabatlarning yangi shakllarining shakllanishi til va nutqning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Til, o'z navbatida, ongning jadallik bilan rivojlanish jarayonini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Shunday qilib, ong faqatgina faoliyat, xulq-atvor, muomala va hissiy jarayonlarni boshqaruvchi regulyator vazifasini bajarib qolmasdan, balki shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini to'laqonli amalga oshirishga xizmat qiluvchi fundamental manba maqomiga ega bo'ldi[16]. Insoniy muloqotning markazida rekursiv fikrlash hodisasi — ya'ni g'oyalarni boshqa g'oyalar tarkibiga singdirish, ularni murakkab ierarxik tuzilmalar shaklida qayta tashkil etish qobiliyati — yotadi. Ushbu kognitiv imkoniyat inson tafakkurining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida nafaqat muloqot jarayonida ma'no yaratish va uni anglashni ta'minlaydi, balki insonning abstrakt tafakkur doirasini kengaytiradi. Rekursiv fikrlashning tuzilishi va uning ishlash mexanizmlarini chuqur o'rganish hozirgi davrda jamiyat va fan oldida turgan murakkab masalalarni samarali hal qilish imkoniyatini beradi. Chunki mazkur qobiliyat nafaqat tilning sintaktik tizimida, balki inson ongining konseptual jarayonlarida ham namoyon bo'ladi. Uning tadqiqi inson tafakkurining universalligi, til va ong o'rtasidagi dialektik aloqadorlik, shuningdek, kognitiv faoliyatning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashda muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi. Demak, rekursiv fikrlash nafaqat nutqiy faoliyatning shakllanishi va rivojlanishida, balki zamonaviy ilm-fan duch kelayotgan global va multidisiplinar muammolarni yengib o'tishda ham fundamental ahamiyatga ega bo'lgan kognitiv mexanizm sifatida baholanishi lozim[22]. Olib borilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, inson tafakkurining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan rekursiv gapirish va fikrlash qobiliyati tug'ma tabiatga ega bo'lib, u ontogenez jarayonida tabiiy ravishda namoyon bo'ladi. Bu kognitiv imkoniyat insoniyatning boshqa biologik turlardan tubdan farqlanishiga sabab bo'lgan fundamental mexanizmlardan biri sifatida baholanadi. Biroq, insonning individual tillari mazkur tug'ma imkoniyatning bevosita ifodasi sifatida emas, balki moslashuvchan, dinamik va ijtimoiy-madaniy sharoitlar ta'sirida shakllanadigan vositalar sifatida qaralishi lozim. Har bir tilning fonetik, leksik va grammatik tuzilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular tilning rivojlangan muhitida shakllanadi, ijtimoiy amaliyot orqali boyiydi va vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Shunday qilib, rekursiv fikrlash inson ongining universal va biologik jihatdan asoslangan mexanizmi sifatida namoyon bo'lsa, individual tillar ushbu mexanizmni moddiylashtiruvchi, uni ijtimoiy tajriba, madaniy qadriyatlar va kommunikativ ehtiyojlarga moslashtiruvchi tizimlar sifatida qaraladi. Bu esa til va ong o'rtasidagi o'zaro ta'sirni yanada chuqurroq anglash, shuningdek, tilning ijtimoiy va kognitiv jarayonlardagi o'rnini aniqlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mashhur psixolog Maykl Korballis rekursiya tushunchasini inson tafakkurining eng muhim kognitiv mexanizmlaridan biri sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, rekursiya — bu g'oyalarni boshqa g'oyalar tarkibiga singdirish, ularni murakkab ma'no tuzilmalariga aylantirish qobiliyatidir. Olim o'zining "Rekursiv ong: Inson tili, tafakkuri va sivilizatsiyasining kelib chiqishi" nomli fundamental asarida ta'kidlaganidek, aynan rekursiv fikrlash inson ongini boshqa jonzoatlarning aqliy imkoniyatlaridan tubdan ajratib turuvchi asosiy xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Korballisning ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, rekursiya inson tafakkurining nafaqat til tizimida, balki kengroq kognitiv jarayonlarda ham asosiy tashkil etuvchisi bo'lib, u insoniyatning ijtimoiy, madaniy va intellektual taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi[23]. Tadqiqotchi Merlin Donaldning ma'lumot berishicha, insonlarning fikrlashi, miya hajmi va fiziologiyasidagi o'zgarishlar miya rivolaniyotining tezlashishini talab qildi, tadqiqotchining fikriga ko'ra, buni miyaning "plastikligi" — uning funksional moslashishi bilan izohlash mumkin[22].

Tilshunoslik doirasida nutq fenomeni, jumladan, bolalar nutqining ontogenetik rivojlanishi, unda nutq qobiliyatining shakllanish jarayonlari, individual tilning paydo bo'lishi va evolyutsiyasi, shuningdek, shaxs nutqida yosh omiliga bog'liq ravishda yuz beradigan o'zgarishlar maxsus ilmiy yo'nalish — ontolingvistika sohasi doirasida izchil o'rganib kelinmoqda. *Ontolingvistika* — tilshunoslikda nutqning ontogenezi o'rganadigan bo'limdir[23]. Ontogenez (yunoncha "*ontos*" — "mavjudlik" va "*genesis*" — "kelib chiqish, rivojlanish" atamalaridan tarkib topgan) tushunchasi inson organizmining paydo bo'lishidan boshlab butun hayoti davomida kechadigan individual rivojlanish jarayonini ifodalaydi. Mazkur termin biologik va psixologik fanlarda, shuningdek, lingvistika va psixolingvistika sohalarida ham shaxsning shakllanish bosqichlarini, rivojlanish

TILSHUNOSLIK

qonuniyatlarini va ularning nutq hamda kognitiv faoliyat bilan uzviy aloqadorligini tadqiq etishda qo'llanadi[23]. Nutq ontogenezi inson hayotining butun davrini qamrab oluvchi murakkab jarayon bo'lib, unda bolalarda nutq qobiliyatining shakllanishi, keyingi bosqichlarda esa uning izchil rivojlanishi hamda individual til tizimida yosh omiliga bog'liq holda yuz beradigan o'zgarishlar mujassamdir. Ushbu jarayon shaxsning kognitiv faoliyati, ijtimoiy tajribasi va kommunikativ ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, u til va tafakkur taraqqiyotini yaxlit holda o'rganishga imkon beradi. Tilshunoslik tarixida bolalar nutqining rivojlanishini tadqiq etish masalasi ko'plab olimlarning diqqat markazida bo'lgan va ular tomonidan sermahsul ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bugungi kunda ham ushbu yo'nalish dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, zamonaviy lingvistika va psixolingvistika doirasida nutq ontogenezinin bosqichlari, uning mexanizmlari hamda yoshga oid o'zgarishlarning ilmiy asoslarini chuqurroq yoritishga qaratilgan tadqiqotlar faol davom etmoqda.

Uzoq tarixiy davr mobaynida G'arb va Sharq mutafakkirlari tomonidan olib borilgan lingvistik izlanishlar turli hududlar va ijtimoiy-madaniy sharoitlarda amalga oshirilgan bo'lib, ularning natijalari ham muayyan farqlar bilan ajralib turgan. Xususan, qadimgi Yunonistonda yashab ijod etgan buyuk faylasuf Aristotel o'zining mashhur "Ritorika" asarida nutq fenomeniga alohida e'tibor qaratib, uni tashkil etuvchi asosiy konseptual kategoriyalar — **etos**, **logos** va **pafos** tushunchalarini tizimli ravishda sharhlab bergan[1]. Aristotelning talqiniga ko'ra, **etos** insonning axloqiy qiyofasi va etik pozitsiyasini ifodalasa, **logos** muloqot jarayonida suhbatdoshga ma'no orqali ta'sir ko'rsatish omilini anglatadi, **pafos** esa nutqning maqsadi hamda kommunikativ vaziyatga muvofiq keladigan ifoda vositalarini belgilaydi. Mutafakkir nutq san'atida notiq va tinglovchi o'rtasidagi psixologik nozikliklarni chuqur tahlil etib, mazkur uch unsurning samarali muloqot jarayonida alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u "sofizm otasi" sifatida tanilgan Gorgiasni o'ziga xos ritorik uslubni shakllantirib, uni keng ommaga o'rgatgan ilk notiq sifatida e'tirof etadi[1]. Aristotel "Ritorika to'g'risi"dagi risolasida Gorgiasga "keng tarqalgan istehzo" deb ta'rif bergan[1]. Manbalarda ta'kidlanishicha, Gorgias muloqotda noan'anaviy yondashuv tarafdori bo'lib, u jiddiy fikrlarga hazil vositasida, hazilomuz mulohazalarga esa jiddiylilik orqali munosabat bildirishni ma'qul ko'rgan. U nutqning turli janrlarini ham tasniflab, xususan, ritorik mahoratni namoyon etuvchi chiqishlar, siyosiy mazmundagi nutqlar, Yunoniston birligi g'oyasiga bag'ishlangan da'vatkorona ma'ruzalar hamda urushda halok bo'lgan afinaliklarning dafn marosimlariga oid xitoblarni alohida ko'rsatib o'tgan[1]. Gorgias nutqning ruhdagi ta'sirini, giyohvand moddalarning tanadagi ta'siriga o'xshatadi[11].

Nemis filologi, faylasuf va tilshunosi Vilgelm fon Gumboldt o'z tadqiqotlarida tilni nafaqat kommunikativ vosita, balki shaxs va jamoa o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy munosabatlarni bog'lovchi faoliyat shakli sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, har bir til xalq va individ ijodining mahsuli bo'lib, nutqiy faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi va doimiy ravishda shakllanadi. Gumboldtning muhim ilmiy yangiliklaridan biri shundan iboratki, u til va tafakkur munosabatini ularning vazifaviy birligida ko'rsatadi hamda inson faoliyatining til dunyosiga ko'chishi haqidagi konseptual g'oyani ilgari suradi[7].

Har qanday ilmiy sohaning shakllanish va rivojlanish bosqichlari mavjud bo'lganidek, ontolingvistikaning ham ilmiy asoslari avvalo Rossiya ilmiy maktabida yaratilgan. XX asrning so'nggi choragida esa u mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib, zamonaviy rivojlanayotgan fanlar qatoridan o'rin oldi. Ontolingvistikaning asosiy tadqiqot obyekti nutq faoliyatini, ya'ni inson til qobiliyatining shakllanishi, rivojlanishi va funksional mexanizmlarini o'rganishdan iboratdir.

L.S. Vigotskiy bolalar psixik rivojlanishi jarayonida nutqning hal qiluvchi ahamiyatini chuqur tahlil qilgan ilk olimlardan biri sifatida e'tirof etiladi. U o'z tadqiqotlarida nutqni nafaqat aloqa vositasi, balki oliy psixologik funksiyalarning shakllanishi va rivojlanishini belgilovchi asosiy omil sifatida talqin etadi. Olimning fikricha, inson ongining yuksak kognitiv jarayonlari aynan nutqning ta'siri ostida shakllanadi va ushbu jarayonlarni ilmiy o'rganish psixologiya hamda lingvistika kesishgan nuqtasida alohida metodologik ahamiyat kasb etadi[3]. "Ontolingvistika" atamasi esa ilmiy muomalaga nisbatan kech kirib kelgan bo'lib, uning shakllanishi 1997 yilda Rossiya davlat universitetida o'tkazilgan maxsus konferensiya bilan bog'lanadi. Mazkur ilmiy anjuman ontolingvistikaning mustaqil yo'nalish sifatida tan olinishida muhim tarixiy bosqich bo'ldi. Shu bilan birga, S.N. Seytlin o'zining "Язык и ребёнок. Лингвистика детской речи" nomli asarida bolalar nutqini ilmiy tadqiq etish jarayonlari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanganini ta'kidlaydi. Bu

davrda bolalar nutqining o'ziga xosligi, uning shakllanish mexanizmlari va yoshga oid dinamik xususiyatlarini tizimli o'rganishga qaratilgan dastlabki fundamental izlanishlar boshlangan edi[11].

Bolalar nutqi masalasi tarixan turli fanlar vakillarining – shifokorlar, psixologlar, faylasuflar va pedagoglarning ilmiy izlanishlari markazida bo'lib kelgan. Bu jarayon bolalarga xos bo'lgan turli nutqiy xususiyatlarni aniqlash, ularning rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda shaxsning intellektual va ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rnini tushunishga qaratilgan. Keyinchalik mazkur hodisa lingvistlar e'tiborini ham tobora ko'proq torta boshladi va natijada u alohida ilmiy yo'nalishga aylandi. S. Seytlinning qayd etishicha, Rossiyada bolalar nutqi bo'yicha ilk samarali tadqiqotlarni olib borgan olimlar orasida L.S. Vigotskiy, A.N. Gvozdev, J.B. Saxarniy alohida o'rin tutadi. G'arbiy Yevropada, xususan, Germaniyada esa I.P. Amzarakova, S. Shahar, K. Vagner va Ch. Shtaynstrater singari tadqiqotchilar ushbu sohaning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shganlar. Ularning tadqiqotlari bolalar nutqini tizimli tahlil qilish orqali ona tilini o'zlashtirish jarayonining umumiy qonuniyatlarini aniqlash, shuningdek, turli individual holatlarga xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni ochib berishga xizmat qildi[11]. Dastlab Rossiyada bolalar nutqi bo'yicha samarali izlanishlar olib borgan olimlardan L.S.Vigotskiy, A.N.Gvozdev, J.B.Saxarniy, Germaniyada I.P.Amzarakova, S.Shahar, K.Vagner, Ch.Shtaynstraterlar ushbu sohaning rivojiga muhim hissa qo'shdilar. Alohida e'tiborga molik jihati shundaki, ko'plab olimlar ilmiy izlanishlarni nafaqat nazariy darajada, balki amaliy tarzda ham olib borib, o'z farzandlarining nutq rivojlanishini kuzatish va tahlil qilish asosida qimmatli ilmiy ma'lumotlar to'plashgan. Ushbu empirik yondashuv bola nutqining shakllanish mexanizmlari, nutqiy kompetensiyaning bosqichma-bosqich o'zlashtirilishi va tilni assimilyatsiya qilishning umumiy hamda individuallashtirilgan tomonlarini aniqlash imkonini berdi.

Bolalar nutqini o'rganishga oid dastlabki ilmiy izlanishlar qatorida ingliz olimi Charlz Darvinning kuzatuvlari alohida ahamiyat kasb etadi. U o'z o'g'lining nutqiy rivojlanishini muntazam qayd etib, 1877 yilda ushbu kuzatuvlari asosida maqola e'lon qilgan. Mazkur maqola hajm jihatidan katta bo'lmasa-da, unda go'dak nutqining shakllanish jarayonlari ancha keng qamrovda va batafsil tasvirlangan[14]. Darvinning ushbu tadqiqoti bolaning nutqiy faoliyatini nafaqat til fenomeni, balki rivojlanayotgan ongning fundamental namoyon bo'lish shakli sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Bu yondashuv natijasida bolalarning ona tilini o'zlashtirish mexanizmlarini ilmiy asosda o'rganishga zamin yaratildi va keyingi tadqiqotlarda katta ilmiy yutuqlarga erishish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi. Darvinning farzandi nutqiga oid kundalik kuzatuvlari chop etilgach, bola nutqini empirik usullar asosida kuzatish va qayd qilish amaliyoti keng tarqaldi. Bu esa nutq va tafakkurning o'zaro aloqadorligini aniqlash, bolaning aqliy va psixologik rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish hamda individual nutqiy kompetensiyaning shakllanish qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qildi. Natijada bolalar nutqini o'rganish lingvistika, psixologiya va pedagogika kesishgan nuqtada muhim tadqiqot obyekti sifatida shakllandi.

Ontolingvistika fanining shakllanishida bolalar nutqini bevosita kuzatish asosida olib borilgan tadqiqotlar alohida o'rin tutadi. Ushbu yo'nalishda sezilarli ilmiy hissa qo'shgan olimlardan biri V. Stern bo'lib, u o'z farzandining nutqiy rivojlanishini muntazam qayd etgan. Olim tomonidan tuzilgan va tilni egallash jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bergan kundalik yozuvlari 1922 yilda Rossiyada nashr etilgan bo'lib, u o'z davrida bola nutqining lingvistik tahliliga bag'ishlangan muhim manba sifatida e'tirof etildi[10]. Shuningdek, XX asr boshlarida V. Leopold ham qizi nutqini muntazam ravishda kuzatib, bu kuzatuvlar asosida "Ikki tilli bolaning nutqini rivojlantirish" nomli asarini ilmiy jamoatchilikka taqdim etdi. Mazkur tadqiqot bolalar nutqining bilingval muhitda shakllanishiga doir dastlabki tajribaviy manbalardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. S. Seytlin ta'kidlaganidek, bola nutqini o'rganishning ilk bosqichlariga mashhur psixologlar K. Byuler va J. Piaget ham o'z ilmiy hissalarini qo'shganlar[18]. Shu bilan birga, A.N. Gvozdevning ilmiy izlanishlari ham e'tiborga molikdir. U o'z farzandining nutqiy rivojlanishini yetti yil davomida kuzatib, bolaning leksik boyligini shakllanish bosqichlarini batafsil o'rganishga erishdi. Ushbu empirik kuzatuvlar natijasi olimning ko'plab ilmiy asarlarida markaziy o'rin egallab, bolalar nutqining rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga salmoqli hissa qo'shdi[8]. Yana bir olim, farzandi nutqi leksikasini yetti yil o'rgangan A.N.Gvozdevni keltirishimiz mumkin[4] va bu izlanishlar olim asarlarida asosiy o'rinni egallaydi[11]. Natijada, mazkur izlanishlar nafaqat bola nutqini o'rganishga oid dastlabki ilmiy tajribalarni boyitdi, balki ontolingvistikaning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishida ham muhim metodologik va nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

S.N. Seytlinning mazkur yo'nalishga bag'ishlangan ilmiy maqolasida qayd etilishicha, ontolingvistika fani nafaqat Rossiya ilmiy maktabi doirasida, balki jahon tilshunosligi miqyosida ham keng tarqalib, G'arb mamlakatlarida faol ravishda rivojlanish bosqichiga o'tgan. Tadqiqotchi ta'kidlaganidek, mazkur fan til va nutqning ontogenetik xususiyatlarini o'rganish borasida xalqaro miqyosda dolzarb ilmiy izlanishlarga turtki bergan va tilshunoslar o'rtasida yangi metodologik yondashuvlarning shakllanishiga zamin yaratgan[11]. S.N. Seytlin o'z tadqiqotida Yevropa tilshunosligi va rus tilshunosligi o'rtasidagi tafovutni izohlar ekan, G'arb mutaxassislarining bolalar nutqini o'rganish borasida ilg'or natijalarga erishganini bir qator omillar bilan izohlaydi. Jumladan, ular ilmiy materiallarni yig'ish va qayd etish texnikasini mukammallashtirganliklari, tajribalarni ishlab chiqish va qo'llashda metodologik yondashuvlarni takomillashtirganliklari hamda eng asosiysi, olingan ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish imkoniyatlarini yaratganliklari tufayli sezilarli ustunlikka erishgan. Shunga qaramay, rus tilshunoslik maktabi vakillari – L.S. Vigotskiy, A.R. Luriya, N.X. Shvachkin, A.N. Gvozdev singari yirik olimlarning ilmiy merosi hanuzgacha jahon miqyosida dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ularning asarlari nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki xorijiy tadqiqotchilar tomonidan amaliy izlanishlarda keng qo'llanilmoqda. Bu esa rus ilmiy maktabining ontolingvistika sohasidagi hissasi G'arb tadqiqotlari fonida ham o'z o'rnini yo'qotmaganini, balki umumjahon lingvistik tafakkur taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishda davom etayotganini ko'rsatadi. Ontolingvistika fani bugungi kunda Yevropa va AQSh universitetlarida mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib, uning bo'yicha maxsus darslik va o'quv qo'llanmalari yaratilgan hamda ta'lim jarayoniga joriy etilgan. S. Seytlinning ta'kidlashicha, XX asrning 60–70-yillarida psixolingvistikaning alohida fan sifatida rivojlanishi bilan nutq ontogenezigiga bo'lgan ilmiy qiziqish qayta jonlandi va shu davrdan boshlab mazkur muammo tizimli tarzda tadqiq etila boshlandi. D.Slobin[9], M.Baurmenlar[20] nutq ontogenezinini o'rganishda Rossiyadagi mavjud tadqiqotlarga tayandilar. Bu holat, bir tomondan, rus tilshunosligining jahon lingvistikasiga qo'shgan ulkan hissasini ko'rsatsa, boshqa tomondan, tilshunoslik fanida ilmiy maktablarning o'zaro uzviy bog'liqligi va bir-birini to'ldiruvchi xususiyatini yaqqol namoyon etadi. Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning barchasi o'z tadqiqotlarida rus olimlari (L.S.Vigotskiy, A.R. Luriya, A.N.Gvozdev) ishlarining ingliz tiliga tarjima qilingan variantlariga asoslanganlar.

Bolalar nutqi tadqiqi borasida G'arb tadqiqotchilari rossiyalik olimlardan bir necha o'n yillardan keyin ilgari ketdilar. Ular tadqiqotlarining jadallashishiga asosiy sabab rus tilshunoslari tomonidan yozilgan asarlarni maxsus ingliz tilidagi variantidan foydalanganligidadir. Ular olib borayotgan izlanishlarning aksariyati, rus tilshunosligiga tayanib yozilgan. Shu vaqtdan boshlab, Yevropa mamlakatlari va AQShda bolalar nutqini o'rganish bo'yicha maxsus muassasalar tashkil etildi. Bu esa tegishli adabiyotlarning ommaviy ravishda chiqarilishiga sabab bo'ldi. Ularning yutuqlarini biz, ona-bola tomonidan ishlab chiqilgan matnlarni avtomatik tahlil qilish uchun yangi dasturlarning yaratilganligida, ilmiy ma'lumotlarning ko'payganligida, jurnallar, konferensiyalar, seminarlar, yozgi maktablarda ko'rishimiz mumkin[11]. Bu bolalar nutqini o'rganish jarayonini tezlashtirishga imkon berdi[21].

Avval qayd etilganidek, G'arb tilshunoslarining ko'plab ilmiy izlanishlari o'z zahirida rus tilshunosligi maktabi va uning nazariy asoslariga tayangan holda shakllangan. S. Seytlin tomonidan keltirilgan dalillarga murojaat etadigan bo'lsak, bu holatni 1960 yilda Garvard universitetida o'tkazilgan xalqaro tilshunoslik konferensiyasi misolida aniq kuzatish mumkin. Mazkur konferensiya bolalar nutqini o'rganishga bag'ishlangan dunyodagi ilk ilmiy forum sifatida tarixda muhim o'rin tutadi va unda bu masala yetakchi mavzulardan biri sifatida keng muhokama qilingan. Konferensiyada amerikalik olim Dan Slobin o'zining "Sovet bolalar nutqini o'rganish" nomli asarini taqdim etadi. Ushbu tadqiqotning asosiy manbasi sifatida A.N. Gvozdevning kundalik kuzatuvlariga tayanilgan bo'lib, unda asl nusxa materiallari hamda ularning tarjima variantlari o'zaro qiyosiy tahlil qilinadi. Slobinning xulosalariga ko'ra, bolalar talaffuzi jarayoni universallikka ega bo'lmay, nafaqat har bir tilning o'ziga xos fonetik qonuniyatlari bilan belgilanadi, balki har bir bolaning individual rivojlanish xususiyatlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu sababli, bolalar nutqining fonetik rivojlanishini boshqa tilga to'liq va adekvat tarzda tarjima qilish imkoni mavjud emas.

Keyingi o'n yilliklarda G'arbda amalga oshirilgan ontolingvistik tadqiqotlar o'z sur'ati va metodologik yondashuvlari jihatidan rus ilmiy maktabidan sezilarli darajada ilgari ketganini

kuzatish mumkin. Buning asosiy sababi, avvalo, tadqiqot jarayoniga zamonaviy texnologik vositalar va ilg'or eksperimental metodlarni keng jalb etilishidir. Shunga qaramay, rus ontolingvistikasi hanuzgacha o'zining an'anaviy kuchli bazasi — ya'ni bolalar nutqini o'rganishda fonetika, leksikologiya, morfologiya va sintaksis doirasida nutq materiallariga tayanib olib borilgan fundamental tadqiqotlari bilan ajralib turadi. Mazkur ilmiy meros bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, bolalar nutqini rivojlanishini tadqiq etishda rus olimlari tomonidan ishlab chiqilgan metod va xulosalar samarali qo'llanilmoqda. Demakki, G'arb ilmiy maktabi texnologik ustunlik evaziga yangi bosqichga ko'tarilgan bo'lsa-da, rus ontolingvistikasi o'zining chuqur nazariy asoslari bilan ontogenez jarayonini o'rganishda haligacha muhim manba va tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

L.I.Barannikova tomonidan keltirilgan ma'lumotga ko'ra, A.N.Gvozdev[5], L.S.Vigotskiy[19], L.N. Leontyev va hamkorlarining fikrlash hamda nutqiy faoliyat masalalariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarida bolalar nutqini har tomonlama o'rganish zarurati kengroq va chuqurroq yoritilgan[27]. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, bolalar nutqiga qiziqish ortib borishi natijasida ontolingvistika doirasida muhim masalalardan biri sifatida so'zlarning semantik tizimi, ko'p ma'nolilik hodisasining mohiyatini bosqichma-bosqich o'zlashtirish jarayoni, shuningdek, turli semantik-grammatik guruhlariga mansub birliklarning o'zlashtirish xususiyatlari alohida e'tibor bilan tahlil qilingan[4].

Shveytsariyalik psixolog va faylasuf J. Piaje o'zining "Bola nutqi va tafakkuri" asarida tilni egallash jarayonini bolaning umumiy kognitiv rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda talqin etadi[8]. Biroq mazkur qarash mashhur rus psixologi L.S. Vigotskiy tomonidan tanqidiy bahoga tortilgan. Uning ta'kidlashicha, bola tafakkuri va nutqi bir-biri bilan chambarchas aloqador bo'lib, bolalik davrida o'ziga xos — atrofdagilarga to'liq tushunarli bo'lmagan nutq shakllari mavjuddir. Vigotskiy nazariyasiga ko'ra, egotsentrik nutq bolaning rivojlanayotgan tafakkur jarayonlarining tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi va uning psixologik yetuklashuvi hamda ijtimoiy muloqotga kirishish bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi[2].

L.S. Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda bolalar nutqini tadqiq etuvchi olimlar uchun muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bolalar nutqiga oid ilmiy izlanishlarning aksariyati asosan ularning og'zaki nutq faoliyati, emotsional ifodaliligi, gender omillari hamda har bir bolaning nutqiy rivojlanishidagi individual xususiyatlarga tayanadi. M. Qurbonovanning qayd etishicha, bolalar nutqiga oid dastlabki ilmiy qarashlar Germaniyada D. Tideman tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'z aksini topgan[12].

1950-yillardan boshlab Germaniyada bolalar nutqining turli jihatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu borada Dortmund maktabi alohida ilmiy maktab sifatida shakllanib, 3 yoshdan 9 yoshgacha bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanishini kuzatish va o'rganish bo'yicha keng ko'lamli izlanishlari bilan tanildi. Mazkur maktab vakillari bolalarning oilaviy muhitdagi va ijtimoiy makondagi nutqiy faoliyatini batafsil tavsiflab berganlar. Dortmund maktabi tilshunoslari, xususan, K. R. Vagner, bolalar nutqini asosan sotsiolingvistik nuqtai nazardan tadqiq etib, ularning nutqiy xususiyatlarini muayyan ijtimoiy tabaqaga mansubligi bilan bog'liq holda tahlil qilgan[20]. G. Kegel ham sotsiolingvistik yo'nalish vakili sifatida bolalar nutqini o'rganishda muhim ilmiy hissa qo'shgan olimlardan biridir. Uning tadqiqotlarida, avvalo, bola nutqining tuzilmaviy rivojlanishi bilan bolaning ijtimoiy mavqei va u yashayotgan ijtimoiy-madaniy muhit o'rtasidagi uzviy aloqadorlik masalalari tahlil etiladi. Olimning yondashuvi shundan iboratki, nutq faqat individual kognitiv jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liq holda shakllanuvchi hodisa sifatida o'rganiladi[17].

Germaniyalik taniqli tilshunos K. R. Vagner o'z ilmiy izlanishlarida maktabgacha yoshdagi bolalar hamda maktab davridagi o'quvchilarning nutqiy rivojlanish jarayonlarini atroflicha tadqiq etgan. Xususan, u bolalar nutqidagi so'z boyligining shakllanishi, nutq persepsiyasining o'ziga xos jihatlarini, shuningdek, leksik birliklarning ma'no tizimini egallash jarayoniga alohida e'tibor qaratgan. Olimning yondashuvi bolalar lug'at boyligi va semantik kompetensiyasining bosqichma-bosqich o'sishini, shuningdek, ularning nutqiy faoliyatida so'zning leksik ma'nosini idrok etish va qo'llash mexanizmlarini ilmiy asosda yoritib beradi[21]. U o'z tadqiqotlarida ma'lum bir yoshga xos bo'lgan leksik birliklar, so'z boyligidagi o'zgarishlarni o'rgangan.

XULOSA

TILSHUNOSLIK

Umuman olganda, nemis tilshunoslik maktabi vakillarining bolalar nutqini tadqiq etishga oid izlanishlarida murakkab va ko'p qirrali yondashuv asosiy tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlarda nafaqat nutq rivojining ichki lingvistik jarayonlari, balki uni belgilovchi psixologik, pragmatik va sotsiologik omillar ham chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, bolalar nutqining morfologik va sintaktik tuzilishiga oid izlanishlar orqali nutqiy kompetensiyaning shakllanish mexanizmlari ochib beriladi. Nemis olimlari til egallash jarayonini keng ijtimoiy va kognitiv kontekstda talqin qilib, bolaning shaxsiy tajribasi, muloqot muhiti va ijtimoiy guruhlariga mansubligi bilan bog'liq xususiyatlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaganlar.

Mazkur izlanishlarning amaliy ahamiyati ham muhim bo'lib, ular nazariy tahlillar bilan bir qatorda kattalar – o'qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalar uchun didaktik tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Bu tavsiyalarda bolaning nutqiy kompetensiyasini izchil rivojlantirish, tilni idrok etish va qo'llash ko'nikmalarini mustahkamlash bo'yicha metodik ko'rsatmalar berilgan. Demak, nemis tilshunoslarining yondashuvi bolalar nutqini o'rganishda nazariy asos, amaliy qo'llanma va pedagogik metodlarni birlashtirgan kompleks ilmiy maktab sifatida shakllanganini ko'rish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аристотель. Риторика. Поэтика. – М.: Лабиринт, 2000. – С. 9
2. Выготский Л. С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.
3. Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.: Смысл; Эксмо, 2005. – 1136 с.
4. Гвоздев А.Н. Развитие словарного запаса в первый год жизни ребенка. – Саратов: Саратовский Университет, 1990. – С. 17-94.
5. Гвоздев А.Н. Значение изучения детского языка для языковедения, «Родной язык и литература в трудовой школе», 1928, № 3, стр. 44-66; № 4-5, стр. 62-68.
6. Леонтьев А. А., Леонтьев Д. А., Соколова Е. Е. А. Н. Леонтьев: деятельность, сознание, личность. – М., 2005.
7. Нурмонов А. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент, 2012. – Б. 200.
8. Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка. – Тверь: Римис, 2008. – 448 с.
9. Слобин Д., Грин Дж. Психоллингвистика. – М.: Прогресс, 1976. – 350 с.
10. Штерн Вильям: <https://ru.wikipedia.org/wiki>
11. Цейтлин С.Н. Язык и ребенок. Лингвистика детской речи. – М.: Владос, 2000. – 240 с.
12. Курбонова М. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихоллингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном... дис. – Тошкент, 2009. – Б.10.
13. Bowerman Melissa, Levinson Stephen C. 2001. Language Acquisition and Conceptual Development. Cambridge: Cambridge University Press. 2014.
14. Darwin C (1839–1856): Notebook of Observations on the Darwin Children. Darwin Online Retrieved 12 February 2009, retrieved March 12, 2009, from <http://darwin-online.org.uk/content/frameset?itemID=CUL>
15. Gorgias. "Encomium of Helen." The Norton Anthology of Theory and Criticism. Eds. Vincent B. Leitch, et al. – New York: W.W. Norton & Company, 2001. – P. 30-33.
16. Goziyev E.G. Psixologiya (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – B. 46.
17. Kegel G. Sprache und Sprechen des Kindes. – Opladen: Westdeutscher Verlag, 1987. – S.195.
18. Leopold W. Bibliography of Child Language. – Evanston. Illinois, 1952. – 297 p
19. Yasnitsky A. (2018). [Vygotksy's science of Superman: from Utopia to concrete psychology](#). In Yasnitsky, A. (Ed.). (2018). [Questioning Vygotksy's Legacy: Scientific Psychology or Heroic Cult](#). London & New York: Routledge.
20. Wagner K.R. Modelle der Sprachanalyse und ihr diagnostischer Wert zur Bestimmung von schichtspezifischem Sprachgebrauch. – Braunschweig: Vieweg, 1971. – S. 172.
21. Wortschatz-Erwerb. Herausgegeben von Klaus R. Wagner. Bern. – Frankfurt-am-Main: Lang, 1987. – S. 341.
22. <https://humanjourney.us/the-evolution-of-language-section/thought-and-language/>
23. https://www.edge.org/conversation/lera_boroditsky-how-does-our-language-shape-the-way-we-think
24. https://spravochnik.ru/yazykoznanie_i_filologiya/ontolingvistika/
25. https://ru.wikipedia.org/wiki/Баранникова,_Лидия_Ивановна
26. Davlatova Hulkaroy Uktamovna. (2021). Psycholinguistic research of children's speech by scientists. Researchjet Journal of Analysis and Inventions. DOI: <https://doi.org/10.17605/osf.io/ud96m> Volume 2, Issue 5 May,
27. Davlatova, H. (2022). BOLALARNING AQLI VA NUTQI RIVOJLANISHIDA OILANING TA'SIRI. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 51-51.
28. Davlatova Khulkaroy. (2023). The role of psycholinguistics in the study of a foreing languages. international engineering journal for research & development. VOL. 8 NO. 4: VOLUME 8
29. X.U Давлатова. (2019) The variation of teaching kids to greeting in Uzbekistan and Great Britain. Молодой ученый, (1), 212-213
30. Uktamovna, H. D. (2019). OPPORTUNITIES FOR ENGLISH-SPEAKING VOICES IN THE SPEECH OF CHILDREN OF THE FIRST SCHOOL AGE. PROBLEMS AND SOLUTIONS OF ADVANCED SCIENTIFIC RESEARCH, 1(1), 226-229

31. U. H. Davlatova and D. Rustamova, "The role of psycholinguistics in foreign language education: Language policy in Uzbekistan," Educational Administration: Theory and Practice, vol. 30, no. 6, pp. 3059-3064, 2024. <https://doi.org/10.53555/kuey.v30i6.5974>